Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK 9.433

NATSIONALIZATSIYA VA MUNITSIPALIZATSIYA SIYOSATINING O'ZBEKISTONDAGI UY-JOYLAR AHVOLIGA TA'SIRI (1920-1930 YILLAR)

Shadmanova Sanobar Bazarovna
Tarix fanlari doktori, professor.
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
T.R.Shadmanov (PhD), dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti
E-mail: sshadmanova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola 1920-1930-yillar yurtimizda natsionalizatsiya va munitsipalizatsiya siyosatining uy-joylar ahvoliga ta'siri natijasida milliy arxitektura uy-joy qurilishi tubdan o'zgarib, aholi yashaydigan mulklar qisqarib, ming yillar davomida milliy hayot tarzimizda aks etgan katta hududda yashab kelgan xalqimiz qurilishda sovet davri uy-joy qurilishiga bo'shatib berdi. Ilmiy manbalarda aholining uy-joyi zo'rlik bilan tortib olingan va musodara qilingan. Maqola ilmiylik jihatidan maqsadi uy-joy qurilishidagi o'zgarishlarni ilmiy jihatdan tarixiy manbalar asosida tahlil etib, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni ko'rsatib berishdan iborat. Tadqiqot izlanishlari natijasida ilmiylik, tarixiy izchillik, tarixiy tahlil, mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalarida Uy-joylarni munitsipalizatsiya qilish bo'yicha RSFSRda sovet hokimiyatining dekreti e'lon qilinib, bu ishni amalga oshirish ishlari boshlab yuborilgan edi. Natijada, sovet hokimiyatining dastlabki yillaridan boshlaboq o'lka aholisining ko'chmas mulklari musodara qilina boshladi. Mazkur ma'lumotlar shahar uy-joy xo'jaligining asta-sekin vayron bo'layotganligini bildirardi. Bu yillarda atigi 3 ta yangi uy qurilgan. 1930-yillarning boshlarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan uy-joy maydoni hajmi tushib borgan. Uy tanqisligi tufayli uning narxi oshib ketdi, uy yetishmasligi ko'p janjallarga sabab bo'ldi. Bundan tashqari, respublikaga boshqa joylardan qochoqlar kelishi ahvolni yanada og'irlashtirdi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida shahar aholisining oshishi bilan uy-joy muammosi kuchayib bordi. Ammo, moliyaviy qiyinchiliklar tufayli mavjud uy-joylar umuman ta'mirlanmay qoldi. Buning oqibatida aholi yashashida katta qiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

Kalit so'zlar: Sovet hokimiyati, uy-joy, RSFSR, Toshkent shahar, mestxoz, Ispravdom, N.A.Milyut, Namangan va Xo'jand.

ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИКИ НАЦИПАЛИЗАЦИИ И МУНИЦИПАЛИЗАЦИИ НА ЖИЛИЩНЫЕ УСЛОВИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (1920-1930 гг.)

Аннотация: В данной статье речь идет о влиянии политики национализации и муниципализации на жилищное строительство в нашей стране в 1920-1930-е годы, коренным образом изменились национальная архитектура и жилищное строительство, сократились площади, в которых проживало население, и наши люди, проживавшие в Большая территория, отразившаяся в нашем национальном образе жизни на протяжении тысячелетий, высвободила в советском строительстве время для жилищного строительства. Согласно

научным источникам, дома людей были захвачены и конфискованы силой. Научная цель статьи - научно проанализировать изменения в жилищном строительстве на основе исторических источников и показать ошибки и недостатки. В результате исследования были использованы научные методы, историческая последовательность, исторический анализ и логический анализ. По результатам исследования было объявлено постановление советской власти о муниципализации жилья в РСФСР и начато выполнение этой работы. В результате с первых лет советской власти недвижимость жителей страны стала конфисковываться. Эти данные свидетельствуют о том, что жильё города постепенно разрушается. За эти годы было построено всего 3 новых дома. В начале 1930-х годов количество жилых площадей на душу населения уменьшилось. Из-за нехватки жилья его цена выросла, а нехватка жилья вызвала множество драк. Кроме того, ситуацию усугубил приезд беженцев из других мест республики. В заключение отметим, что в первые годы советской власти жилищная проблема росла вместе с ростом населения города. Однако из-за финансовых трудностей существующие дома вообще не ремонтировались. В результате это вызвало большие трудности в жизни населения.

Ключевые слова: Советская власть, ЖКХ, РСФСР, город Ташкент, местхоз, Исправдом, Н.А. Милют, Наманган и Ходжанд.

IMPACT OF NATIONALIZATION AND MUNICIPALIZATION POLICY ON HOUSING CONDITIONS IN UZBEKISTAN (1920-1930)

Annotation: This article deals with the impact of the policy of nationalization and municipalization on housing construction in our country in the 1920-1930s, the national architecture and housing construction radically changed, the areas in which the population lived were reduced, and our people living in a large territory, reflected in our national way of life for thousands of years, freed up time in Soviet construction for housing construction. According to scientific sources, people's houses were seized and confiscated by force. The scientific purpose of the article is to scientifically analyze changes in housing construction based on historical sources and show errors and shortcomings. The research used scientific methods, historical sequence, historical analysis and logical analysis. Based on the results of the study, a decree of the Soviet government on the municipalization of housing in the RSFSR was announced and this work began. As a result, from the first years of Soviet power, the property of the country's residents began to be confiscated. These data indicate that the city's housing is gradually being destroyed. Over the years, only 3 new houses were built. In the early 1930s, the amount of residential space per capita decreased. Due to the shortage of housing, the price of housing has increased, and the shortage of housing has caused many fights. In addition, the situation was aggravated by the arrival of refugees from other parts of the republic. In conclusion, we note that in the first years of Soviet power, the housing problem grew along with the growth of the city's population. However, due to financial difficulties, existing houses were not renovated at all. As a result, this caused great difficulties in the life of the population.

Key words: Soviet power, housing and communal services, RSFSR, Tashkent city, local economy, Ispravdom, N.A. Milut, Namangan and Khojand.

KIRISH. Sovet hokimiyati dastlabki yillardanoq uy-joyni davlat mulki deb e'lon qildi hamda undan aholiga ta'sir o'tkazish vositasi sifatida foydalandi. Sovet

mafkurasida individual uy-joyga mayda burjuacha yashash tarzining manbai va kapitalizmning asosi sifatida qaraldi. Xususiy turar joylarni davlat mulkiga aylantirish ko'p vaqt talab qilmadi.

Ma'lumki, o'lka shaharlaridagi an'anaviy uy-joylar sinchli xom g'ishtli bo'lib, ular atmosfera ta'sirida tezda ishdan chiqqan. Hovlilar asosan ichkari va tashqariga, xotin-qizlar va erkaklar qismiga bo'lingan hamda derazasiz devorlardan iborat edi. Ular o'ziga xos bo'lsa-da, ammo arxitektura va sanitar-texnik jihatdan yaxshilashni talab etardi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Uy-joylarni munitsipalizatsiya [1] qilish bo'yicha RSFSRda sovet hokimiyatining dekreti e'lon qilinib, bu ishni amalga oshirish ishlari boshlab yuborilgan edi. Shu sababli, Turkistonda ham bu borada bir qancha turli qarorlar qabul qilindi. Jumladan, Ichki ishlar komissarligiga qarashli kommunal bo'lim sovetlar markaziy ijroiya komitetiga respublikadagi shaharlarda ko'chmas mulkka xususiy mulkchilikni bekor qilish haqidagi qarorini tasdiqlash uchun jo'natadi. Natijada, sovet hokimiyatining dastlabki yillaridan boshlaboq o'lka aholisining ko'chmas mulklari musodara qilina boshladi. Xususan, 1919-yil yanvarida Toshkent shahar ijroiya komiteti tomonidan 1914-yil narxlariga ko'ra 15.000 rubldan oshiq bo'lgan imorat va hovlilar davlat mulkiga aylantirilgan[2]. Faqat O'zbekistonning katta shaharlaridagina 1920-yillarda davlatga qarashli munitsipal uy-joylarni inventarizatsiya qilish ishlari amalga oshirilgan edi. Samarqandda 1925 – 1926-yillarda mahalliy xo'jaliklar (mestxoz) hisobida 380 ta uy bo'lib, ulardan 93 tasi umuman foydalanish uchun yaroqsiz bo'lgan, 87 tasi kapital ta'mir talab qilgan uylar bo'lgan[3]. Mazkur ma'lumotlar shahar uy-joy xo'jaligining asta-sekin vayron bo'layotganligini bildirardi. Bu yillarda atigi 3 ta yangi uy qurilgan. Bundan tashqari, mahalliy xo'jaliklar (mestxoz) yuqorida tilga olingan 380 ta uyning yuridik jihatdan xo'jayini bo'lmagan, bitta ham uy akt tuzib rasmiylashtirilmagan va Xalq komissarlari sovetining munitsipalizatsiya to'g'risida maxsus qarori qabul qilinmagan[4]. Uy-joyi munitsipalizatsiya qilingan uy egalarining ba'zilari hukumat tashkilotlariga shikoyat qilgan holatlar ham uchraydi.

Samarqand viloyatining 4 ta shahrida 22.689 ta inshoot mavjud bo'lib, ulardan 325 tasi munitsipal, 367 tasi vaqf mulki, 21.997 tasi xususiy mulkdan iborat edi[5]. 1924-yil avgustida Samarqand "yangi" shahar mahalliy xo'jaligidan "eski" shahar mahalliy xo'jaligi ajratiladi. Samarqand "eski" shahrida 9.000 ta bino bo'lgan bo'lsa, shundan faqat 0,8 foizi o'z qiymati va hajmi bo'yicha qo'yilgan talablarga javob bera olgan, shuning uchun shaharning bu qismida 81 tagina uy munitsipalizatsiya qilingan edi. "Yangi" shaharda barcha binolarning 40 foizini uy-joylar tashkil etardi[6], ya'ni uy-joylar o'sha davrdagi mavjud talablarga javob bermaganligi tufayli ular kam munipalizatsiya qilinishi sabablaridan biri bo'lgan.

Andijon shahrida 940 ta uy-joy bo'lsa, ularning aksariyatini turli muassasalar egallagan. Aholi jon boshiga 1-1,5 sarjin uy maydoni to'g'ri kelgan[7]. 1931-yilda Andijon shahri umumiy maydoni 403.596 kv.m. uy-joy (14.191 ta) bo'lgan, 1936-yilda ularning hajmi 423.700 kv.metrga yetgan[8]. Yashash uchun yaroqsiz bo'lgan uylarning buzib tashlanishi, ba'zi uchastkalarning yangi qurilgan Madaniyat va istirohat bog'i maydoniga o'tib ketganligi hamda bu davrda sovet hokimiyati tomonidan yangi uylar qurilmaganligi uy-joy maydonining qisqarishiga olib kelgan.

Birgina Qo'qon shahridagi 17.373 ta uydan 145 ta uy (umumiy maydoni 9881,53 kv.sarjin) munitsipalizatsiya, 107 ta uy demunitsipalizatsiya[9], 12 ta uy (577 kv.sarjin) natsionalizatsiya qilingan[10]. 1924 – 1925-yillarda Andijonda 108 ta uy, Farg'onada 13 ta uy, jami Farg'ona viloyati shaharlarida (Farg'ona shahridan tashqari)

144 ta uy (umumiy maydoni 4.331 kv.sarjin) demunitsipalizatsiya qilingan[11].

1932-yilda Toshkent shahridagi 2.901.000 kv.metr uy-joy maydonidan 22,2 foiz munitsipalizatsiya qilingan uylarni, davlat muassasalariga qarashli uy-joy fondi 3,6 foiz, kooperativ tashkilotlarga 2 foiz va 70,5 foiz xususiy mulkni tashkil etgan[12]. 1920-yillarda Buxoroda 2,5 million rublga baholangan yirik boylarning uylari va savdo muassasalari munitsipalizatsiya qilingan hamda shifoxona, o‘quv muasasalariga hamda ishchi va xizmatchilarga berilgan[13]. Sovet hokimiyati tomonidan munitsipalizatsiya qilish siyosati o‘tkazilganligiga qaramasdan uy-joy fondining katta qismini xususiy uylar tashkil etgan. Masalan, 1927-yilda Buxoro okrugi shaharlarida uy-joy fondining 2,8 foizi mahalliy xo‘jaliklarga va davlat muassasalariga tegishli edi, qolgan qismi esa xususiy mulk bo‘lgan[14].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. 1930-yillarning boshlarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan uy-joy maydoni hajmi tushib borgan. Xususan, bu ko‘rsatkich 1930-yilda 5,7 kv.m. bo‘lgan bo‘lsa, 1932-yilda 4,1 kv.metrga tushib qoldi[15]. Buxoro shahrida esa kishi boshiga o‘rtacha hisobda 1,7 kv.metr uy-joy to‘g‘ri kelgan. 1930-yillarning boshlarida bu shaharda 3000 ta yarim xaroba uylar bo‘lib, ularni ta’mirlab bo‘lmas edi[16]. Bundan tashqari, shahar aholisi o‘tin yo‘qligi tufayli yarim xaroba uylardagi yog‘ochlarni tashib ketishgan.

Andijonda ta’mirlash uchun ajratilgan mablag‘ asosan shahar soveti, mahalliy xo‘jalik, xalq sudi, axloq tuzatish uyi (Ispravdom), Xitoy konsulligi binolarini ta’mirlashga sarflangan. 1930-yilda munitsipal fondga, keyinchalik JAKTlarga o‘tkazilgan 75 ta uy kapital ta’mirga muhtoj bo‘lgan[17].

Uy-joy fondining bunday qoniqarsiz ahvoli Andijondagi uy-joy inqiroziga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, “eski” shahardagi uy-joy fondining ahvoli ayanchli edi. Andijon shahar soveti “eski” shahardagi yashash uchun yaroqli bo‘lgan uy-joylarni saqlab qolishga harakat qilmadi. Aksincha, yashashga yaroqli bo‘lgan uylar ham ko‘pincha buzilgan holda qurilish materiallari sifatida sotib yuborilgan.

Andijonda uy-joy xo‘jaligini boshqarishga o‘ta mas’uliyatsizlik bilan qaralgan. Uylarni taqsimlash va uylardan ko‘chirib chiqarish ishlari o‘z holicha qolib ketganligidan shahardagi ba’zi davlat muassasalari amaldorlari uylar bo‘shab qolsa, zudlik bilan o‘zboshimcha holda joylashib olgan holatlar ham ko‘p uchragan.

Andijon shahrida yangi qurib bitkazilgan binolar ham sifatsizligi tufayli darrov ta’mirga muhtoj bo‘lgan. Respublikaning boshqa shaharlarida ham qurilish sifati past darajada bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Xuddi shunday holatni Qo‘qon shahrida ham kuzatish mumkin. Qurilishda nafaqat malakali mutaxassislar, balki oddiy ishchilar ham yetishmagan, bu esa ish sifatiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Masalan, 1932 – 1933-yillarda Qo‘qonda 38 xonadondan iborat ikki qavatli uy qurilishida 60 kishi o‘rniga atigi 6 nafar ishchi mehnat qilgan[18]. Bu uy ishchilar uchun mo‘ljallanganligi sababli uning qurilishiga sovet hokimiyati siyosiy vazifa sifatida qaragan.

1917-yilgacha va undan keyingi davrda uy-joy yer maydoniga mablag‘ sarflash bir-biridan farq qilgan. Xususan, 1917-yilgacha uy-joy yer maydonining narxi tez ko‘tarilib turgan va u daromad manbai bo‘lib xizmat qilgan. Biroq, uylarning o‘zlaridan keladigan daromad ko‘p bo‘lmagan. Sovet hokimiyati yerga xususiy mulkchilikni bekor qilganidan so‘ng uy boshqarmalari asosiy daromad manbaidan quruq qolgan. Shu sababli xususiy tadbirkorlar o‘z mablag‘larini bu ishga tikishdan foyda ko‘rmay qo‘ygan edi.

Shunday qilib, bu davrda shahar aholisini uy-joy bilan ta’minlash murakkab ahvolda edi. Bu yillardagi siyosiy-iqtisodiy inqiroz, barcha sohalarda hayot izdan chiqib ketganligi, sovet hokimiyatining uy-joy masalasida ham o‘z siyosatini o‘tkazishi,

ya’ni xususiy mulkchilikni yo‘qotib, barcha uy-joyni davlat mulkiga aylantirishni maqsad qilganligi ahvolni yanada chigallashtirdi. Sovet hokimiyati uy-joydan xalqni boshqarish, ularni nazorat qilish hamda g‘oyaviy qurol vositasi sifatida foydalandi va albatta bu masalaga ham sinfiy nuqtayi nazardan yondashdi hamda “ijtimoiy yot elementlarni” uylaridan quvib chiqarishga kirishdi. Bu yillarda qurilgan ko‘p qavatli uylarning aksariyati shaharlarning “yangi” qismlarida qurilgan edi. Shuningdek, uylar yetishmasligidan tashqari, qurilgan uylarning sifati ham ancha past edi. Sovet hokimiyati bu sohada ham o‘z taktikasini o‘zgartirib turdi. Yangi iqtisodiy siyosat davrida uyga egalik qilishga va uni ijaraga olishga yo‘l qo‘yilishi natijasida sovet hokimiyati loyihalari va aholining uy-joy qurilishi amaliyoti o‘rtasida kompromissga erishildi.

Uy tanqisligi tufayli uning narxi oshib ketdi, uy yetishmasligi ko‘p janjallarga sabab bo‘ldi. Bundan tashqari, respublikaga boshqa joylardan qochoqlar kelishi ahvolni yanada og‘irlashtirdi.

1920-yillarda kvartiraga order berilishi kamdan kam hollarda alohida xona (komnata) olishga kafolat berardi. Aksariyat hollarda bir necha kishi yashaydigan xonadan bir burchak berilar edi. Bitta xonada yashaydigan kishilarni ko‘pincha birgalikda yashashdan boshqa hech narsa birlashtirib turmagan. Har bir kishi o‘z burchagining egasi bo‘lgan. Uy-joy inqirozi tufayli yangi kelgan kishilar dahlizda, koridorda, hatto avval hojatxona bo‘lib xizmat qilgan joyda ham joylashtirilgan. Sobiq omborxonalar o‘rnida xonalar paydo bo‘ldi, do‘konlar va cherdaklar yashash joyi bo‘lib xizmat qila boshladi.

1921-yilda Toshkentning “yangi” shahar qismida uy-joyni ro‘yxatga olish amalga oshirildi. Buning uchun shaharning bu qismi sobiq kvartal komitetlari birlashtirilib, 16 ta rayonga bo‘lindi. Shaharning markaziy rayonlari olti qismga bo‘lingan, birinchi rayonga eng yaxshi binolar joylashgan asosiy ko‘chalar kiritilib, uy-joylar soni bo‘yicha bu rayon oxirgidan oldingi o‘rinda turgan, lekin turar joy kengligi bo‘yicha birinchi o‘rinda edi, ya’ni shahardagi umumiy turar joylar maydonining 13,3 foizini tashkil etgan[19]. Mazkur ro‘yxatga olish natijasida 8146 ta uy-joy hisobga olingan. Shundan 6228 ta uy pishiq yoki xom g‘ishtdan, 1899 ta uy somonli loydan va faqat 19 ta uy yog‘ochdan qilingan. “Eski” shaharga yaqin joylashgan rayonlardagi (3-rayon) uylarning faqat 22 foiz pishiq yoki xom g‘ishtdan qurilgan edi va uylarning tomi loy bilan yopilgan. 100 ta uydan faqat 40 tasining tomi tunuka bilan qoplangan. 16 ta rayonning faqat bittasida (7-rayon) 50 foiz uylarning puturi ketgan edi, qolgan rayonlarda uylarning ahvoli qoniqarli edi. Bu esa birinchi navbatda respublikaning iqlim sharoiti bilan bog‘liq edi. 1917 yildan buyon uylarni kapital ta’mirdan chiqarishning imkoni bo‘lmagan bo‘lsada, quruq va issiq iqlim sharoitida uylar ancha yaxshi saqlangan. Toshkentning “yangi” shahar qismidagi uylarning poli uch xil, ya’ni taxta, tosh va yerdan iborat bo‘lgan. Ba’zan bitta qavatdagi xonalarda birvarakayiga uch xil polni uchratish mumkin edi. Aksariyat hollarda oshxona yoki omborxona o‘rnida tashkil etilgan xonalarda tosh yoki yer pollar bo‘lgan.

Umuman olganda, 1921-yilda Toshkentning “yangi” shahar qismida uy-joy maydoni 110.798 kv.sarjindan iborat bo‘lib, har bir kishiga o‘rtacha hisobda 1,38 kv.sarjin maydon va 2,23 kub sarjin toza havo to‘g‘ri kelgan[20]. Masofa o‘lchash asbobi bo‘lmaganligi va ro‘yxatga olish muddatining qisqaligi tufayli uy-joy maydonini aniq o‘lchash imkoni bo‘lmagan hamda uy maydoni qadam bilan o‘lchangan. O‘rtacha hisobda bitta xona 17,8 kv. metrni (taxminan 4 kv. sarjin) tashkil qilgan. Uy-joy binolarining devorlari pishiq va xom g‘ishtdan, sinchli va aralash materiallardan iborat edi. Xom g‘ishtdan qurilgan binolar aksariyatni tashkil qilib, ularning soni 1.356 tani (90,5 foiz) tashkil etgan. Jami 93 ta pishiq g‘ishtdan qilingan uylar bo‘lsa, shundan 69 tasi mahalliy xo‘jalikka qarashli

edi. Sinchli uylar umumiy foizning 2,6 foiz (40 ta bino) tashkil qilgan.

Uylarning tomlari tunukadan, loydan, cherepitsa (tomga yopiladigan sopol), taxta va boshqa materiallardan bo‘lgan. Jumladan, tunukalik tomlar 697 (46,5 foiz), loylik tomlar 781 (52,1 foiz), boshqa materiallardan 11 (0,8 foiz), materiali noaniq bo‘lgan tomlarni 9 (0,6 foiz) tashkil etgan. Shunday qilib, aksariyat uylarning tomi loydan bo‘lgan. Tunuka tomlik uylarning yarmidan kamrog‘i (697 tadan 295 tasi) mahalliy xo‘jaliklar qaramog‘ida edi, qolganlari esa xususiy shaxslarga tegishli bo‘lgan[21]. Xonadonlarning katta qismi (4.573) xususiy kvartirantlar bilan band, kichik foizini (1,9 foiz) turli muassasalar (93 kvartira) va 2,5 foiz savdo-sanoat muassasalari (120 kvartira) egallab, muassasalar va savdo-sanoat tashkilotlari shahar mahalliy xo‘jaligiga qarashli binolarda joylashgan.

Ma’lumki, sovet hokimiyati “madaniy inqilobning” bir bo‘lagi sifatida “burjuacha” individuallikka qarshi kurashib, aholining turmush tarzini ham kollektivlashtirish siyosatini yurgizgan. Sovet hokimiyatining uy-joy siyosati insonlarning shaxsiy hayotiga ham ta’sirini o‘tkazdi, ya’ni kollektivizm ruhini ilgari surgan sovet hokimiyati kommunal uylar va yotoqxonalar orqali insonlarning shaxsiy hayotlarini nazorat qilishga urindi.

Sovet hokimiyati uy-joy siyosatining asosini ham kollektivizm prinsipi tashkil qilgan. Bu haqda sovet shaharsozligi nazariyotchisi, arxitektor N.A.Milyutin shunday so‘zlarni yozgan edi: “Mehnat va madaniyat orqali turli avlod vakillarining o‘zaro ta’siri ta’minlanadi, shunday tarzda oiladagi tarbiya kollektiv tarbiya bilan almashtiriladi. Aholi yashash joylarini rejalashtirganda yangi turmush tarziga monelik qiladigan to‘siq bo‘lmasligi lozim. 2-3 xo‘jalikka alohida oshxona qurish uchun yirik fabrika-oshxona yoki umumiy ovqatlanish tizimidan iborat oziq-ovqat kombinati qurishga nisbatan 10 baravar ko‘p mablag‘ ketadi”[22].

Umuman, sotsialistik makon va yashash tarzi haqida sotsiologlar, iqtisodchilar, arxitektorlar va shaharsozlar M.Oxitovich, L.Sabsovich, M.Ya.Ginzburg, N.A.Milyutin va boshqa ko‘plab mutaxassislar bahs-munozaralar olib borgan. Bu davrdagi juda ko‘plab g‘oyalar ilgari surilgan, shulardan biri kommuna uylar, yacheyka xonadonlar tashkil etish g‘oyasi edi. Bunday turdagi yashash joyi shaxsiy yashash maydonini maksimal darajada qisqartirishni ko‘zda tutgan. Unda inson umrining aksariyat qismi ijtimoiy hayotdan iborat, deb hisoblangan. Yashash joyi faqat uyqu, shaxsiy gigiyenaga bo‘lgan ehtiyojni qondirishi lozim edi[23]. “Sotsialistik shahar quruvchilari ishchilarning yashash joylarini faqat uxlaydigan joylarga aylantirish g‘oyasini targ‘ib qildi”[24]. 1930-yillarda uy-joy arxitekturasi M.Ya.Ginzburg va M.O.Barsh tomonidan ishlab chiqilgan. Turli uy-joy qurilishi ishlab chiqilgan bo‘lsada, eng ko‘p tarqalgan uy-joy turi bir-ikki kishiga mo‘ljallangan yacheyka-uy bo‘lib, u xona, ilgakli dahliz, hojatxona, bet-qo‘l yuvish uchun dush xonasidan iborat edi.

XULOSA. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida shahar aholisining oshishi bilan uy-joy muammosi kuchayib bordi. Ammo, moliyaviy qiyinchiliklar tufayli mavjud uy-joylar umuman ta’mirlanmay qoldi. Xususan, 1919-yil boshlarida Samarqand shahrining vokzal atrofidagi joylarda 200 ta uy umuman buzilib ketganligidan ko‘p oilalar uysiz qolgan[25] va bir xonada 2-3 oila yashashga majbur bo‘lgan[26].

1936-yilda O‘zbekistonning yirik shaharlarida aholi o‘rtacha hisobda 4,7 kv. metrga ta’minlangan, sanitar norma bo‘yicha bir kishiga 9,1 kv.m. to‘g‘ri kelishi zarur edi[27]. Bu esa kishi boshiga o‘rtacha hisobda to‘g‘ri keladigan uy-joy normasi judayam past ekanligini ko‘rsatadi. Aholining miqdor jihatdan uy bilan ta’minlashi qoniqarsizligidan tashqari uy-joyning sifati

ham juda past darajada bo‘lgan. Bunga bir qancha sabablar mavjud bo‘lib, uy-joy qurilishi shahar aholisining o‘sishidan qolib ketayotganligi, uy-joylarning tabiiy holda eskirishi, boshqa qurilishga yer uchastkalarining olib qo‘yilishi, tramvay liniyalarining o‘tkazilishi, ko‘chalarning kengaytirilishi, tabiiy ofatlar natijasida turar joylarning buzib tashlanganligi shular jumlasidandir. Masalan, 1928 – 1932 yillarda 515 ming kv.m. uy-joy qurib bitirilgan bo‘lsada, uy-joy amalda 324.900 kv.metrga oshgan, ya’ni turli sabablarga ko‘ra 90.100 kv.metrga ozaygan. Toshkent shahri bo‘yicha 1933 – 1935-yillarda 102.448 kv.m. uy-joy qurilgan va topshirilgan. Shu bilan birga 96.947 kv.m. uy-joy ishdan chiqqan. Natijada 1933 – 1936-yillarda aholi 100 ming kishiga oshgan bo‘lsada, uy-joy fondi 5.501 kv.metrga ko‘paydi[28]. Bunday holatni Samarqand shahrida ham ko‘rish mumkin edi. 1934-yilda Farg‘ona vodiysining qator shaharlarida bahorda yoqqan jala bir necha ming inshootlarning buzilishiga olib keldi, ulardan 2000 ta bino Qo‘qon shahrida joylashgan edi.

Yuqorida biz o‘rganilayotgan davrda shaharlarda uy-joy tanqisligi mavjud ekanligini hamda bu holat vujudga kelishiga bir qancha omillar sabab bo‘lganlini guvohi bo‘ldik. Bular orasida aholining zichligi bilan bog‘liq omil ham mavjuddir. Umuman olganda, shaharlarning “eski” va “yangi” qismida aholining zichligi har xil edi. Shaharlarning “yangi” qismida aholi o‘ta zich joylashgan edi. Masalan, Namangan va Xo‘jandda shaharlarning “yangi” qismi unchalik rivojlanmaganligi sababli kvartiralar soni oilalar soniga qaraganda ko‘proq edi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Муниципализация – уй-жойни давлат томонидан маҳаллий ўз-ўзини бошқариш органларига ўтказиш иштирокиюн. – 1919. – 7 февраль.
2. Ўз МА, Р.86-фонд, 1-рўйхат, 4239-иш, 31-варақ.
3. Ўз МА, Р.86-фонд, 1-рўйхат, 4239-иш, 32-варақ.
4. Самарқанд вилояти давлат архиви, 1685-фонд, 1-рўйхат, 300-иш, 89 варақ орқаси.
5. Самарқанд вилояти давлат архиви, 1685-фонд, 1-рўйхат, 613-иш, 17-варақ орқаси.
6. Фарғона вилояти давлат архиви, 121-фонд, 2-рўйхат, 447-иш, 12-варақ орқаси.
7. Ўз МА, Р.2182-фонд, 1-рўйхат, 85-иш, 1-варақ.
8. Демуниципализация- муниципализация қилинган мол-мулкни эгаларига қайтариш.
9. Фарғона вилояти давлат архиви, 121-фонд, 2-рўйхат, 353-иш, 165-варақ.
10. Фарғона вилояти давлат архиви, 324-фонд, 1-рўйхат, 1-иш, 196-варақ.
11. Ўз МА, Р.86-фонд, 10-рўйхат, 310-иш, 410-варақ.
12. Ўз МА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 2103-иш, 62-варақ.
13. Материалы к отчету Бухарского окружного исполнительного комитета за 1926/27 операционный год к III сессии ЦИКа УзССР. – Бухара: Издание Бухокрисполкома, 1928. – С.43.
14. Ўз МА, Р.2182-фонд, 1-рўйхат, 85-иш, 1-варақ.
15. Ўз МА, Р.86-фонд, 10-рўйхат, 310-иш, 450-варақ.
16. Ўз МА, Р.2182-фонд, 1-рўйхат, 85-иш, 2-варақ.
17. Ўз МА, Р.2182-фонд, 1-рўйхат, 85-иш, 37-варақ.
18. Итоги жилищной переписи европейской части г.Ташкента 1921 г. – Ташкент: Издание ЦСУ Туркреспублики, 1922. - С.2.

19. Итоги жилищной переписи европейской части г.Ташкента 1921 г. – Ташкент: Издание ЦСУ Туркреспублики, 1922. - С.5-6.

20. Перепись населения нового города Самарканда 16-17 января 1925 г. // Бюллетень ЦСУ. – 1925. – №4. – С.6.

21. Милютин Н. А. Проблема строительства социалистических городов. – М., 1920. – С.32.

22. Ўша даврда бу ғоя танқид остига олинган, аммо ҳозирги кунга келиб бу ғоя амалга оширилган. Бугунги кунда "уйқу капсуласи" Япониянинг кўпгина шаҳарларида, хусусан, Токио, Йокогама, Осака, Нагоя, Саппорода вужудга келган. "Уйқу капсулалари" меҳмонхоналарга жамланган. Меҳмонхона майдони умумий ва индивидуал майдонга бўлиниб, ижтимоий майдон асосий қисмни ташкил этади.

23. Хан-Магомедов С.О. Архитектура советского авангарда. Кн. 2. Социальные проблемы – М.: Стройиздат, 2001. – С.132.

24. Голос Самарканда. – 1919. - №81.

25. Голос Самарканда. – 1919. - №110.

26. Ўз МА, Р.2182-фонд, 1-рўйхат, 192-иш, 12-варақ.

27. Ўз МА, Р.2182-фонд, 1-рўйхат, 192-иш, 13-варақ.

28. Ўз МА, Р.2182-фонд, 1-рўйхат, 192-иш, 13-варақ.